

**«ЗАЯВКА
на приобретение продукции на 2022 год»**

Директор

Газийского ИДУ

Х.Р.Назиров

«18» 2022T.

ЗАЯВКА

на приобретения системы радиосвязи между подразделениями и отделами на объектах Газийского НГДУ АО «Узбекнефтегаз»

Наименование подразделения заказчика: Департамент АКТ

Ф.И.О. лица, подавшего заявку на закупку: Д.Д.Матякубов

Ф.И.О. регистратора отдела Отд. Закупки: Одусов Д

№ и дата приемки заявки на исполнение: номер заявки № 127/27 от « 18 » 01 2022г.

№ п/п	Наименование продукции	Спецификации продукции (энергосоответственность продукции)	Ед-из	Кол-во	Требуемая дата поставки	Фактическая и дата поставки	Степень влияния на качество продукции	Наличие остатков на складе
1.	ЧАСТОТА	160,325 МГц, 165,150 МГц	услуга	2				—

Руководитель подразделения/процесса:

ТМЦ данного типа (марки) на складах имеется: №

№ _____ (подпись) _____

№ _____
(КОЛ-ВО)

Д.Д.Маткубов
(Ф.И.О.)
144
**
(КОЛ-ВО)

Иванов Иван Иванович (подпись) (Ф.И.О. материального бухгалтера) (кол-во)

(подпись) (Ф.И.О. материального бухгалтера)

Kelishildi

“EMMM” DUK

V.Sh.Kushayev

“ ” 2022 yil.

Tasdiqlayman

GNGQCh boshqarmasi

Bosh muhandisi

G.Y.Temirov

2022 yil.

13 - sonli shartnomaga asosan “EMMM” DUK tamonidan “O’zbekneftgaz” AJ
GNGQCh boshqarmasiga Radioelektron vositalardan foydalanishga muayyan
radiochastotalar yoki radiochastota tasmalarini taqdim etish uchun

TEXNIK TOPSHIRIQ

T/R	Taqdim etilgan chastota(MGs), Qabul qilish va uzatish	Quvvati(Vat)
1	160,325 MGs	5 Vt
2	165,150 MGs	5 Vt

Tuzildi:

Gazli neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi


AKT yetakchi muhandisi



D.D.Matyakubov

Kelishildi:

Gazli gazni qayta ishlash zavodi boshlig'i



Sh.S.Shoimov



Товарлар каталоги

Тизим халқиси

Янгиликлар

Тарифлар



УЗ V

Қўриш

Баш саҳифа / Ягона етказиб берувчилар реестри


Ягона етказиб берувчилар реестри

Q 201057444

10002201007444

Государственное унитарное предприятие Центр Электродинамичной совместимости (ГУП ЦЭС)

Асбос: ПИИ-429 от 26.10.2001г. ПИИ-318 от 01.05.2018г.



Х.Р. Назиров
2022 й

**Газли нефт ва газ қазиб чиқариш бошқармаси конкурс
комиссияси бўйича доимий ҳаракатдаги мажлис баённомасининг
4 қарори**

Газли ш

«17» 01 2022 й

Мажлис раиси: Х.Р. Назиров – Газли НГҚЧ бошқармаси директори;
Мажлис қатнашчилари: Ғ.Ё.Темиров, Ш.С.Шоимов, Л.Б.Абдурахмонов,
Ж.П.Рўзметов, А.Р. Шомурзаев, Ж.Э. Сафаров, С.Н. Умиров, Б. Кодиров,
С.Эргашев, И.Б. Уринов, С.Ч.Раимов, Ш.Ш. Жураев.

Таклиф қилинган: Д.Д. Матякубов

КУН ТАРТИБИ:

Газли нефт ва газ қазиб чиқариш бошқармасида ички локал тармоқ ва алоқани ташкил этишда радио частоталардан фойдаланиш тўғрисида “ЭМММ” ДУК билан шартнома қили, асос сифатида 22.04.2021 йилдаги Ўзбекистон Республикасининг ЎРҚ-684-сонли **Давлат Харидлари Тўғрисидаги қонунининг 9-боб 71-моддасидаги** Тўғридан-тўғри шартномалар бўйича, (Ягона етказиб берувчилар реестрига киритилган ягона етказиб берувчи билан) давлат харидларини амалга ошириш мумкин. “ЭМММ” ДУК бу иловада мавжуд. 1-илова тақдим қилинади.

Кун тартибига қўйилган масала бўйича, “Ўзбекнефтгаз” АЖ АКТ департаменти Етакчи муҳандиси Д.Д. Матякубов сўзга чиқиб, бошқармага қарашли бўлган объектларга ички локал тармоқ ва алоқаларни ташкил этишда объектларга ўрнатилган Радио станциялардан фойдаланишда “Радиочастота спектри тўғрисида”ги қонунчилигига асосан, бошқармада мавжуд бўлган радио тўлиқларини бошқармага бириктиришда қонунийлаштириш ва тўғри фойдаланиш мақсадида, назорат қилувчи ягона ташкилот ҳисобланган Электромагнит мослашув маркази амалга ошириши ҳақида айтиб ўтди.

Конкурс комиссияси бўйича доимий ҳаракатдаги мажлис овоз бериш йўли орқали

ҚАРОР ҚИЛАДИ:

1. Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда, Электромагнит мослашув маркази томонидан тақдим қилинган шарнома предметида асосан шартнома расмийлаштирилсин.

2. Ғазначилик бўлимига тақдим этиладиган хужжатларни ўз вақтида топширилишини назорат қилиш – Ғазначилик ва молиялаштириш бўлими етакчи мутахассиси Х.Д. Собиров зиммасига юклатилсин.

3. Тузилаётган шартноманинг Ўзбекистон Республикаси қонунлари асосида бўлиши – бошкарма ҳуқуқшуноси Б.К. Қодиров томонидан кўриб чиқилсин.

4. Тузилган шартноманинг бажарилиши бошкарма бош муҳандиси Ғ.Ё. Темиров зиммасига юклатилсин

Ғ.Ё. Темиров

Ш.С. Шоимов

Ж.П. Рўзметов

С.Н. Умиров

Ш. Жураев

Д.Д.Матякубов

Комиссия котиби

Б.Қодиров

Л.Б. Абдурахмонов

А.Р. Шомурзаев

Ж.Э. Сафаров

С.А. Халилов

Х.Д. Собиров

И.Б. Уринов

SHARTNOMA № 13

Buxoro sh.

“ 18 ” 01 2022 yil

2022 yil uchun

Ushbu shartnoma Tajmuriyot va 103 raq. 2022 yil 18.01.2022 yil keyingi o'rinlarda «Foydalanuvchi» nomidan rahbari qob-05.10.01-12/2-5. R. Nazirov bir tomondan va O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi «Elektromagnit moslashuv markazi» davlat unitar korxonasining (EMMM) DUK», Buxoro viloyati Elektromagnit moslashuv xizmati keyingi o'rinlarda (EMMX) Nizom asosida faoliyat yurituvchi rahbar V.Sh.Kushaev tomonidan quyidagilarga kelishgan holda tuzildi:

1. Shartnoma mazmuni

1.1. Radioelektron vositalardan (REV) foydalanishga muayyan radiochastotalar yoki radiochastota tasmalarini taqdim etish. «EMMX» tomonidan Foydalanuvchiga elektromagnit moslashuvchanlikni hisoblash va nazorat qilish, REV va radiochastotalarni ro'yxatdan o'tkazish xizmatlarini ko'rsatish.

1.2. Chet el aloqa ma'muriyatlari bilan radiochastota taqdimotlarini muvofiqlashtirish tayyorgarlik bo'yicha xizmatlar, shuningdek REV va radiochastota taqdimotlarini Xalqaro elektraloqa ittifoqida (XEI) ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish.

1.3. «EMMX» tomonidan Foydalanuvchiga ajratilgan radiochastota resursining texnik tayyorligini ta'minlash va undan foydalanishni nazorat qilish uchun ko'rsatiladigan xizmatlar, shuningdek, foydalanuvchining radioelektron vositalariga xalaqit beradigan radiosho'vqinlarni bartaraf etish bo'yicha ishlarni amalga oshirish.

2. Tomonlarning majburiyatlari

«EMMX» majburiyatlari:

2.1. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, REVni harid qilish va o'rnatish, loyihalashtirish va qurish, horijdan olib kirish va foydalanish uchun ruxsatnomalarni rasmiylashtiradi. Loyihalashtirish va qurish, shuningdek foydalanish uchun berilgan ruxsatnomaning amal qilish muddati, Foydalanuvchiga telekommunikatsiya sohasida faoliyat yuritishi uchun berilgan Litsenziyaning amal qilish muddatidan oshmasligi zarur. 2.2. Foydalanuvchining REVlarini ro'yxatdan o'tkazish va shu bilan bog'liq barcha kerakli ishlarni bajarish bilan shug'ullanadi.

2.3. Elektromagnit moslashuvchanlik ekspertizasini o'tkazadi, zarur hollarda, radiochastota taqdimotlarini xorijiy davlat aloqa ma'muriyatlari bilan muvofiqlashtirish ishlarini amalga oshiradi.

2.4. Qonun hujjatlariga muvofiq, shuningdek, foydalanuvchining yozma so'roviga binoan, foydalanuvchining barcha turdagi radioelektron vositalarini va radioaloqa tizimlarini o'rnatilgan tartibda Xalqaro elektraloqa ittifoqida ro'yxatdan o'tkazadi.

2.5. Xorijiy davlat aloqa ma'muriyatlari bilan radiochastota taqdimotlarini muvofiqlashtirishda, shuningdek radiochastotalarni tayinlash va radioelektron vositalar va radioaloqa tizimlarini Xalqaro elektraloqa ittifoqida ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq munozarali masalalar yuzaga kelganda, Foydalanuvchining qonuniy huquqlarini va manfaatlarini himoya qiladi.

2.6. Foydalanuvchining REVlariga bo'ladigan radiohalaqitlar ta'sirini belgilangan muddatda bartaraf etishni ta'minlaydi.

2.7. Foydalanuvchining REV larining ishlashi ustidan texnik radionazoratni amalga oshiradi.

Foydalanuvchi majburiyatlari:

2.8. REVni harid qilish (olish, berish), loyihalashtirish, qurish (o'rnatish, rekonstruksiya qilish, kengaytirish), horijdan olib kirish va REVdan foydalanishda belgilangan tartibga rioya qiladi.

2.9. REVdan foydalanish huquqini beruvchi ruxsatnomalarda nazarda tutilgan, REVga taqdim etilgan radioma'lumotlarga asosan, amaldagi radionurlanish va boshqa talablarga muvofiq ishlashini ta'minlash.

2.10. Foydalanuvchiga tegishli bo'lgan REVlar va radioaloqa tizimlarining radioaloqa qurilmalari va ayrim operatorlarning tizimlariga, shu jumladan qo'shni davlatlar aloqa ma'muriyati operatorlariga radioxalaqitlar paydo bo'lishining oldini olish bo'yicha choralar ko'rish.

2.11. Radioaloqadan foydalanishning belgilangan qoidalariga rioya qilish.

2.12. «EMMX» tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun taqdim etilgan hisob-varaqa fakturaga muvofiq o'z vaqtida (10 kundan kechiktirmay) to'lovlarni amalga oshirish.

2.13. «EMMX» ga hisob-kitoblarni o'tkazish va tegishli ruxsatnomalarni taqdim etish uchun zarur bo'lgan barcha kerakli hujjatlar va materiallarni taqdim etish.

2.14. «EMMX»ga Xalqaro elektroaloqa ittifoqida (XEI) radiochastota taqdimotlarini, radioelektron vositalar va radioaloqa tizimlarini ro'yxatdan o'tkazish uchun ariza berish maqsadida barcha kerakli hujjatlar va ma'lumotlarni, shuningdek muvofiqlashtirish zonalarini aniqlash bo'yicha amalga oshirilgan hisob-kitoblarni taqdim etish.

2.15. REVdan foydalanish huquqini beruvchi ruxsatnomalarni muddatini uzaytirishda, «EMMX» ga avvalgi davrdagi ruxsatnomalarni taqdim etish.

2.16. Texnik nazorat doirasida Foydalanuvchi tomonidan ishlatilayotgan REVga «EMMX» ning mansabdor shaxslarini to'siqsiz kirishni ta'minlash.

2.17. REV xavfsizligini ta'minlash.

2.18. Foydalanuvchi ishlatayotgan REVlar, televizion va radioeshittirish dasturlarini qabul qilishga va boshqa REVlarga radioxalaqit manbai Foydalanuvchi o'zining REVi bo'lsa, uni bartaraf etishda «EMMX» tomonidan qilingan xarajatlarni qoplash.

2.19. Foydalanuvchining REV va radioaloqa tizimlari, xorijiy davlat aloqa ma'muriyati va alohida radio operatorlari faoliyatiga xalaqitli ta'sir hosil qilganda, ushbu masalalarni hal qilish uchun «EMMX» tomonidan sarflangan xarajatlarni qoplash.

2.20. «EMMX» tomonidan yuborilgan tavsiyalarga (shu jumladan texnik tavsiyalarga) amal qilish.

2.21. Agar Litsenziyalovchi organ foydalanuvchiga telekommunikatsiya sohasidagi faoliyat turi uchun berilgan Litsenziyani to'xtatish yoki bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilsa, radioelektron vositalarning ishlashini to'xtatishni ta'minlash.

2.22. Radiochastotadan foydalanish to'xtatilganda yoki REV faoliyatiga berilgan litsenziyani va REVning ishlashiga berilgan ruxsatnomalar bekor qilingan taqdirda, REV faoliyati tugatilgandan so'ng, 10 kun muddat ichida «EMMX» ga REVni demontaj qilinganligi yoki saqlashga berilgani haqida Dalolatnoma nusxasini taqdim etadi, xamda foydalanish uchun berilgan ruxsatnomani qaytaradi.

3. Tomonlarning huquqlari

«EMMX» huquqlari:

3.1. Foydalanilayotgan REVning ustidan texnik nazoratni olib borish.

3.2. REVlardan foydalanish tartibiga rioya qilmaslik, radioxalaqitlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar bajarilmasligi, radioaloqadan foydalanish qoidalari buzilishi, hamda amaldagi radionurlanish parametrlari standartlariga mos kelmagan hollarda, REVlardan foydalanishni taqiqlash.

3.3. Foydalanuvchiga aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar berish.

3.4. Litsenziya beruvchi organ Foydalanuvchiga telekommunikatsiya sohasidagi faoliyat turi uchun bergan Litsenziyani to'xtatish yoki bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda, taqdim etilgan radiochastota va REVLardan foydalanishga berilgan ruxsatnomalarni to'xtatish yoki bekor qilish.

3.5. Quyidagi hollarda REVLardan foydalanishga berilgan ruxsatnomalar bekor qilinishi mumkin: - ruxsat berilgan kundan boshlab 6 oy ichida taqdim etilgan radiochastotalardan foydalanmaslik; - «EMMX» tarif to'lovlarini to'lash uchun, shuningdek radiochastota spektridan foydalanganlik uchun foydalanuvchida mavjud bo'lgan muddati o'tgan debitorlik qarzlari mavjud bo'lsa; - Foydalanuvchi tomonidan REVLarni ro'yxatdan o'tkazish va undan foydalanishning belgilangan tartibini qo'pol ravishda buzgan hollarda.

3.6. «EMMX» quyidagi hollarda Foydalanuvchining REVLardan foydalanish huquqini to'xtatib turish yoki cheklashga haqli: - REVLarni ro'yxatdan o'tkazish va uni foydalanish tartibini buzilishini bartaraf etilgunga qadar; - alohida holatlarda, shuningdek Radiochastotalar bo'yicha respublika kengashi (RChRK) tomonidan kiritilgan cheklov va taqiqlar asosida alohida radiochastotalardan foydalanish zaruriyati bo'lsa.

3.7. Foydalanuvchiga qo'yilgan to'lov varaqasi bankning 10 ish kuni muddatida to'lanmasa, inkassaga aktseptsiz to'lov talabnomasi qo'yish va Foydalanuvchining hisob raqamidan to'lov undirish.

Foydalanuvchi huquqlari:

3.8. REVLardan foydalanish uchun berilgan ruxsatnoma doirasida taqdim etilgan radiochastotalardan foydalanish.

3.9. XElda radiochastotalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun «EMMX» ga maslahatlar va tavsiyalar uchun, murojaat qilish.

3.10. REVLarga ta'sir qiluvchi radioxalaqitlarni o'z vaqtida bartaraf qilish uchun «EMMX» ga murojaat qilish.

3.11. Taqdim etilgan radiochastotalardan voz kechish xamda REVLardan foydalanishni to'xtatish.

4. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov va hisob-kitob tartibi

4.1. Ushbu shartnoma bo'yicha barcha «EMMX» xizmatlarining narxi (chastotalarni taqdim etish va REVga ruxsatnoma berish uchun to'lov, e'lon qilingan radiochastotalarni xorijiy davlat aloqa ma'muriyatlari bilan muvofiqlashtirish va XElda radiochastotalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun xizmatlarning narxi, radiochastotalardan foydalanish uchun to'lov va boshqalar) taqdim etilgan hisobvaraq-fakturalarga asosan belgilanadi.

4.2. Shartnomada ko'rsatilgan xizmatlar uchun «EMMX» va Foydalanuvchi o'rtasida hisob-kitob, Elektromagnit moslashuv ekspertizasi, radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalarni ro'yxatdan o'tkazish va ulardan foydalanish bo'yicha xizmatlar tariflariga muvofiq amalga oshiriladi (Tariflar).

4.3. Bir marotabalik to'lanadigan to'lovlar tariflarga muvofiq to'g'ridan-to'g'ri tegishli ruxsatnoma (olib kirish, harid qilish, o'rnatish, loyihalashtirish, qurish, foydalanish va boshqalarga) berilishidan oldin amalga oshiriladi.

4.4. Foydalanish uchun to'lovlar REVLardan foydalanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berilishidan oldin foydalanishning birinchi oyi uchun to'lanadi va keyinchalik har oyning 10 sanasigacha joriy oy uchun yillik miqdorning mutanosib qismida to'lanadi.

4.5. Foydalanuvchi foydalanish to'lovining yillik miqdorini birdan to'lashga haqlidir.

4.6. Tariflar o'zgargan taqdirda, Foydalanuvchi yangi tariflar joriy qilingan davrdan boshlab qo'shimcha to'lov to'laydi.

4.7. Foydalanuvchi berilgan hisobvaraq-faktura olgan kundan boshlab bankning 10 ish kuni ichida to'lashi kerak.

4.8. Tariflarda ko'zda tutilmagan ish va xizmatlarning narxi tomonlar o'rtasida kelishilgan narxlar va xarajatlar smetasi asosida to'lanadi.

5. Tomonlarning mas'uliyatlari

5.1. Ushbu bitim bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy asoslari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi Qonuni va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar. «EMMX» ning mas'uliyatlari:

5.2. Tegishli ruxsatnomalar berish va radioxalaqitlarni bartaraf etish to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqishning amaldagi me'yoriy hujjatlarida belgilangan muddatlarga rioya qilish.

5.3. Ushbu shartnomaga asosan ishlar va xizmatlarning o'z vaqtida yoki noto'g'ri bajarilgani uchun, «EMMX» foydalanuvchiga har bir kechiktirilgan kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismi qiymatining 0,5 foizi miqdorida jarima to'laydi, lekin bu qiymat xizmatlar narxining 50 foizidan oshmasligi kerak.

5.4. Foydalanuvchining tijorat sirlarini oshkor qilmaslik.

5.5. Radiochastotalarni noto'g'ri belgilash natijasida radioxalaqitlar vujudga kelsa, «EMMX» foydalanuvchi bilan kelishgan holda, tanlangan boshqa radiochastotalarni to'lovsiz taqdim etadi.

Foydalanuvchining mas'uliyatlari:

5.6. «EMMX» tomonidan ko'rsatilgan xizmatlari va amalga oshirilgan ishlari uchun taqdim etilgan hisobvaraq-fakturalarini o'z vaqtida to'lash.

5.7. «EMMX» ga taqdim etilgan REVlar soni, ularning texnik xususiyatlari, o'rnatish manzili, quvvati, shuningdek XEIda ro'yxatdan o'tkazish uchun radiochastota taqdimoti va elektromagnit moslashuvchanlik hisob-kitoblari uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar ishonchliligi uchun.

5.8. Foydalanuvchi aybi bilan boshqa foydalanuvchilar REVlarida radioxalaqitlar vujudga kelsa, radioxalaqitni bartaraf etish bo'yicha «EMMX» harajatlarini qoplash.

5.9. Foydalanuvchining mansabdor shaxslari chet eldan harid qilish (berish), qurish (o'rnatish), olib kirish shuningdek REVlarni ro'yxatdan o'tkazish va foydalanishning belgilangan tartibini va "Radioaloqadan foydalanish qoidalarini" (21.02.2006 y. 1547-son bilan Adliya Vazirligidan ro'yxatdan o'tkazilgan) qonunlarini buzganlik uchun javobgardirlar.

5.10. To'lov talabini qabul qilishdan asossiz ravishda to'liq yoki qisman rad etish, shuningdek xizmatlar uchun to'lovni to'lashdan bo'yin tovlash uchun Foydalanuvchi «EMMX» ga to'lashdan qochgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.11. «EMMX» tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar va ishlar uchun taqdim etilgan hisobvaraq-fakturalarni o'z vaqtida to'lamaganligi uchun, foydalanuvchi har bir kechiktirilgan kun uchun muddati o'tgan to'lov miqdorining 0,5 foizini to'laydi, lekin bu to'lov muddati o'tgan to'lov miqdorining 50 foizidan ko'p bo'lmasligi lozim.

6. Favqulodda vaziyat

6.1. Ikkala tomon ham ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadi, agar bu xol shartnoma tuzilgandan keyin paydo bo'lgan favqulodda hodisalar natijasida yuzaga kelishi kutilmagan va oldi olinmaydigan favqulodda hodisalar natijasida sodir bo'lgan bo'lsa, ya'ni urush yoki harbiy harakatlar, terroristik

harakatlar, zilzilalar, toshqinlar, yong'inlar, epidemiyalar, epizootiya, davlat hokimiyati organlarining qarorlari, qonunchilikdagi o'zgarishlar (fors-major).

6.2. Fors-major holatlari yuzaga kelgan tomon, ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelgan paytdan boshlab 10 kun ichida boshqa tomonga xabar berishi va ushbu holatlarni tasdiqlovchi yozma yoki boshqa dalillarni taqdim etishi lozim.

7. Korruptsiyaga qarshi kurashish shartlari

7.1. Tomonlar, ularning har biri poraxo'rlik va korruptsiyaga umuman toqat qilmaslik siyosatini olib borishini tan oladilar va tasdiqlaydilar, bu korruptsiya va ko'mak berish uchun to'lashning to'liq taqiqlanishini nazarda tutadi, ularning maqsadi rasmiyatchilikka ko'maklashishdir. Tomonlar o'z faoliyatida amaldagi qonunlar va uning asosida pora berish va pora bilan kurashishga qaratilgan ishlab chiqilgan siyosat va protseduralarni boshqaradi.

7.2. Tomonlar na ular va na ularning ishchilari tomonlarning biron bir shaxsiga korruptsion to'lovlarni taqdim etishni taklif qilmasliklari, taqdim etishlari yoki ularga rozilik berishlari shuningdek taraflarning to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita biron bir shaxsdan har qanday korruptsiya to'lovlari olish, qabul qilish yoki qabul qilishga rozi bo'lmasliklariga kafolat berishadi.

7.3. Agar Tomonlardan biri 7.1 va 7.2-bandlarning biron bir qoidalari buzilishi sodir bo'lgan yoki yuzaga kelishi mumkin deb taxmin qilsa, tegishli Tomon rasmiy Tarmoq kanallari orqali boshqa Tomonni yozma ravishda xabardor qilishga majburdir. Yozma xabarnomada Tomon ushbu Shartnomaning 7.1 va 7.2-bandlarining har qanday qoidalari buzilganligi yoki sodir bo'lishi mumkinligi to'g'risida tasdiqlovchi yoki asos berish uchun dalillarga murojaat qilishi yoki materiallarni taqdim qilishi shart.

8. Boshqa shartlar

8.1. Ushbu shartnomaning bekor qilinishi Foydalanuvchiga berilgan ruxsatnomalarning bekor qilinishiga olib keladi va taqdim etilgan radiochastotalar boshqa foydalanuvchilarga biriktirilishi mumkin.

8.2. Foydalanuvchining balansi (ijara)dagi REVlar ro'yxati shartnomaga ilova tariqasida berilishi shart va uni amalga oshirilish jarayonida tomonlar ro'yxatga aniqliklar kiritishlari mumkin.

8.3. Shartnomaga o'zgartirishlar va qo'shimchalar amaldagi qonunchilikdagi o'zgarishlarga muvofiq yoki tomonlarning kelishuviga binoan amalga oshiriladi.

9. Shartnomaning amal qilish muddati

9.1. Shartnomaning muddati ruxsatnomalarning amal qilish muddati bilan belgilanadi, ammo u foydalanuvchiga telekommunikatsiya sohasidagi faoliyat turi uchun berilgan Litsenziyaning amal qilish muddatidan uzoqroq bo'lishi mumkin emas.

9.2. REVlardan foydalanish uchun ruxsatnomalarning muddatini uzaytirganda, shartnomaning muddati keyingi amal qilish davriga uzaytirilgan deb hisoblanadi.

9.3 Ushbu shartnoma quyidagi hollarda avtomatik ravishda bekor qilinadi: - REVlar ishini to'liq tugatish va Foydalanuvchining taqdim etilgan radiochastotalardan bosh tortishi; - REVlardan foydalanish uchun berilgan ruxsatnomalarni bekor qilinishi; - telekommunikatsiya sohasidagi faoliyat turi uchun Foydalanuvchiga berilgan litsenziyaning to'xtatilishi yoki bekor qilinishi.

9.4. Tomonlarning biri shartnoma talablarini buzishi oqibatida boshqa tomon tashabbusi bilan shartnoma faoliyati to'xtatilishi mumkin. Shartnomaning to'xtatilishi *to'g'risida bir tomon, shartnoma to'xtatilishi muddatidan bir oy oldin yozma holda ikkinchi tomonni ogohlantiradi.*

9.5. Shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 31 dekabrgacha.

9.6. shartnoma summasi 2022 yil uchun 194160-00 (Bir yuz to'qson to'rt ming bir yuz oltmish so'm) ni tashkil etadi.



«Buxoro viloyati EMMX»

Buxoro shahri, I.Mo'minov ko'chasi 2
Hisob raqam 20210000600155263044
AK "Aloqabank"ning Buxoro shahridagi filiali
MFO 00401 STIR 201057444
OKED 61900
Kod 326080011605

Tel/Faks: 65-223-95-58



V.Sh.Kushayev

Foydalanuvchi

«O'ZBEKNEFTGAZ» AJ

Toshkent shahri, Yashnobod tumani Istiqbol
ko'chasi 21
Hisob raqam 20210000900124339038
"O'zsanoatqurilishbank" ATB Yashnobod filiali
MFO 00432 STIR 200837914
OKED 11100

Tel/Faks: _____



X.R.Nazirov

Huquqiy xulosa

1. Ushbu bitim iqtisodiy munosabatlarni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining II qismi 38-bobi va O'zbekiston Respublikasining 08.29.1998 yildagi "Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining shartnomaviy-huquqiy asoslari to'g'risida"gi qonunida belgilangan normalariga muvofiq tartibga solinadi. 2. Ushbu shartnomaning shartlari O'zbekiston Respublikasining "Radiochastota spektri to'g'risida"gi, "Telekommunikatsiyalar to'g'risida"gi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar talablariga javob beradi. 3. Shartnoma bo'yicha javobgarlik choralari va nizolarni hal qilish tartibi qonun talablarida belgilangan normalarga asosan amalga oshiriladi. "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy asoslari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 21-moddasi asosida amalga oshirilgan yuridik ekspertizani o'tkazgandan so'ng, quyidagicha xulosa qilaman: "Ushbu bitim xo'jalik shartnomasi sifatida ishlatilishi mumkin".

X.R. Nazirov.

13.01.2022.